XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-54-138-11-167-K/22 Quvasoy shahar hokimligi

Quvasoy shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22- dekabr kuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida 27-dekabr kuni qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil budjet paraiyetrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-171-11-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01/01-38/2744 -sonli xatiga asosan Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023-yilgi mahalliy Budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-171-11-0-K/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan ishlab chiqilgan Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati

Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023-yilgi mahalliy Budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-171-11-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq 2023-yilga Quvasoy shahar mahalliy budjetiga viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfer 54,0 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi hamda tuman mahalliy budjeti daromadlari 94,4 mlrd.so‘m va xarajatlari esa 148,4 mlrd.so‘m miqdoridagi prognozlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qarorga asosan 2023-yilda:

a) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari shahar mahalliy budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- aylanmadan soliq;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;
- davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

v) Shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga quyidagi ulushlarda:

Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘larining 50 foizi;

yuridik shaxslarning yer solig‘i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

davlat Budjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning

(yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

4. Shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2023-yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Shahar mahalliy budjetidan 2023-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy Budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2023-yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1,3 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Shahar hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishini ta’minlasin.

7. Qarorga ko‘ra 2023-yil uchun shahar budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz ya’ni 782,0 mln.so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Shahar mahalliy budjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi Budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

10. Shahar hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha amalga oshiriladigan

tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy budjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbaalar hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

11. Shahar hokimligi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini yetarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta’minlash;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar hokimliklar tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirsin.

12. Shahar hokimligi budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalar Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

13. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Z.K.To'rakulov**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-54-138-11-167-K/22-son qaroriga
1-ilova

Quvasoy shahrining shahar mahalliy byudjetining daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	**94 415 035**
I.	**Tartibga soluvchi daromadlar**	**35 332 500**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*35845500*
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**42 774 500**
	To‘liq tuman mahalliy byudjetiga	**18 673 000**
1	Yagona soliq to‘lovi	7 050 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	511 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 084 000
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 668 000
5	Ijara to‘lovlari	360 000
	Viloyat va tuman (shahar) mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**24 101 500**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	3 101 800
2	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchu soliq	7 744 500
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 393 500
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	5 741 500
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 209 500
6	Jarimalar	831 600
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**15 874 135**
	Aholi soni (ming kishi)	*98*
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	6 421 901
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 754 622
3	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i	6 697 612
	Aholi soni (ming kishi)	*98*

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-54-138-11-167-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Quvasoy shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratilgan mablag‘larining kiritilgan o‘zgarishlar bilan cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Tasdiklangan reja
1	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	8 523 912,0
2	Xalq ta’limi bo‘limi	8 933 241,0
3	Tibbiyot birlashmasi	51 872 670,0
4	Madaniyat bo‘limi	4 958 406,0
5	Cportni rivojlantirish bo‘limi	5 130 006,0
6	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	758 576,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	635 643,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	1 600 159,0
9	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	513 165,0
10	Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (Markazlashgan hisobxona)	299 472,0
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	19 194 420,0
12	Moliya bo‘limi	1 314 657,0
13	Yoshlar ishlari agentligi hududi bo‘limi	3 371 313,0
14	Kengash kotibiyatini saqlash xarajatlari	214 897,0
15	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	2 959 988,0
shundan:		
	O‘zini-o‘zi boshqarish organlari (MFYlar)	2381709,0
16	**Hokimiyat**	**38 176 593,0**
shundan:		7 282 765,0
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	2 445 530,0
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	3 199 661,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 151 850,0
	Ijtimoiy nafaqalar	20 840 000,0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari ("dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" va markazni saqlash xarajatlari)	91 662,0
	"Tashabbusli byudjet" jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar	7 293 228,0

	Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ajratilgan mablag‘lar	757 000,0
	Zaxira jamg‘armasi	1 397 662,0
	Xarajatlar jami	**148 457 118,0**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-54-138-11-167-K/22-son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming.so‘m)
1	Arsif MFY	0,70	21 945,0
2	Qalacha MFY	0,70	21 945,0
3	Yangi obod MFY	0,70	21 945,0
4	Yuqori Muyan MFY	1,00	31 350,0
5	Muyon MFY	1,00	31 350,0
6	Isfayramsoy MFY	1,00	31 350,0
7	Kokilon MFY	1,00	31 350,0
8	Pakana MFY	1,00	31 350,0
9	Do‘stlik MFY	0,70	21 945,0
10	Qo‘chqorchi MFY	0,70	21 945,0
11	Namuna MFY	0,70	21 945,0
12	Bo‘ston MFY	0,70	21 945,0
13	Valik MFY	0,70	21 945,0
14	Pastki Valik MFY	0,70	21 945,0
15	Nayman MFY	0,70	21 945,0
16	Sufon MFY	0,70	21 945,0
17	A.Temur MFY	1,10	34 485,0
18	M.Ulug‘bek MFY	1,10	34 485,0
19	Xuvaydo MFY	1,10	34 485,0
20	A.Navoiy MFY	1,10	34 485,0
21	Cho‘lpon MFY	1,10	34 485,0
22	Lashkar MFY	1,00	31 350,0
23	Bog‘bon MFY	1,10	34 485,0
24	Polmon MFY	1,10	34 485,0
25	Zebuniso MFY	1,10	34 485,0
26	Soy bo'yi MFY	1,10	34 485,0
27	Yoshlik MFY	1,10	34 485,0
28	Ziynat MFY	1,10	34 485,0

29	X.Olimjon MFY	1,10	34 485,0
30	Guliston MFY	1,10	34 485,0
31	Xamdo'stlik MFY	1,10	34 485,0

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-54-138-11-167-K/22-son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘m)
1	Arsif MFY	0,70	195,0
2	Qalacha MFY	0,70	195,0
3	Yangi obod MFY	0,70	195,0
4	Yuqori Muyan MFY	1,00	279,0
5	Muyon MFY	1,00	279,0
6	Isfayramsoy MFY	1,00	279,0
7	Kokilon MFY	1,00	279,0
8	Pakana MFY	1,00	279,0
9	Do‘stlik MFY	0,70	195,0
10	Qo‘chqorchi MFY	0,70	195,0
11	Namuna MFY	0,70	195,0
12	Bo‘ston MFY	0,70	195,0
13	Valik MFY	0,70	195,0
14	Pastki Valik MFY	0,70	195,0
15	Nayman MFY	0,70	195,0
16	Sufon MFY	0,70	195,0
17	A.Temur MFY	1,10	307,0
18	M.Ulug‘bek MFY	1,10	307,0
19	Xuvaydo MFY	1,10	307,0
20	A.Navoiy MFY	1,10	307,0
21	Cho‘lpon MFY	1,10	307,0
22	Lashkar MFY	1,00	279,0
23	Bog‘bon MFY	1,10	307,0
24	Polmon MFY	1,10	307,0
25	Zebuniso MFY	1,10	307,0
26	Soy bo'yi MFY	1,10	307,0
27	Yoshlik MFY	1,10	307,0
28	Ziynat MFY	1,10	307,0
29	X.Olimjon MFY	1,10	307,0
30	Guliston MFY	1,10	307,0
31	Xamdo'stlik MFY	1,10	307,0